



UDK: 372.3:371.3

BOSHLANG'ICH SINFLARDA IQTIDORLI O'QUVCHILAR BILAN ISHLASHNING INNOVATSION USULLARI

Nuraliyeva Kamola Isaqali qizi

Namangan davlat pedagogika instituti katta o'qituvchi (PhD)

knuraliyeva4980@gmail.com +998934974980

Zokirjonova Guljaxon Baxodir qizi

Namangan davlat pedagogika instituti 1-kurs magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinflarda iqtidorli o'quvchilar bilan ishlash ta'lif jarayonining muhim qismi ekanligi, bunday o'quvchilar yuqori intellektual salohiyatga ega bo'lib, ularning qobiliyatlarini rivojlantirish maqsadida zamonaviy pedagogik texnologiyalar va innovatsion yondashuvlardan foydalanish zarurligi, iqtidorli o'quvchilar bilan ishlashning innovatsion usullari yoritilgan.

Kalit so'zlar: iqtidor, o'quvchi, ta'lif, tarbiya, jamoa, innovatsiya, texnologiya, axloq, ehtiyoj, maktab, o'qituvchi.

ИННОВАЦИОННЫЕ МЕТОДЫ РАБОТЫ С ТАЛАНТЛИВЫМИ УЧЕНИКАМИ В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ

Аннотация: В данной статье показано, что работа с одаренными учащимися в младших классах является важной частью образовательного процесса, что такие учащиеся обладают высоким интеллектуальным потенциалом, и для развития их способностей необходимо использовать современные педагогические технологии и инновационные подходы, а также выделены инновационные методы работы с одаренными учащимися.

Ключевые слова: талант, ученик, образование, подготовка, коллектив, инновация, технология, мораль, потребность, школа, учитель.

INNOVATIVE METHODS OF WORKING WITH TALENTED STUDENTS IN PRIMARY CLASSES

Annotatsion: This article shows that working with gifted students in elementary grades is an important part of the educational process, that such students have high intellectual potential, and it is necessary to use modern pedagogical technologies and innovative approaches to develop their abilities, and innovative methods of working with gifted students are highlighted.

Key words: talent, student, education, training, team, innovation, technology, morality, need, school, teacher.



KIRISH

Davrning hayotiy ehtiyojlari maktablarda ta'lism-tarbiya ishlari darajasini yuqori bosqichga ko'tarishni, har tomonlama puxta bilim olgan, fan va texnika asoslari bilan qurollangan kelajak avlodni tarbiyalab voyaga yetkazishni talab qiladi. Prezident Shavkat Mirziyoyev "Bizning vazifamiz – to'plangan tajriba va ilg'or xalqaro amaliyatga suyangan holda, o'zimizning taraqqiyot va yangilanish modelimizni qat'iy amalgalashdan iborat. Shu borada yaqin va o'rta muddatga belgilangan marralarga erishish uchun qat'iyat bilan harakat qilishimiz zarur" [1] deb ta'kidlaganlari beziz emas. Negaki, taraqqiyotga erishishda mamlakat jtimoiy tizimining barcha sohalari faol bo'lmoqliklari shart.

Bugungi kunda ilm-fan, texnika va ishlab chiqarish sohalarining tez sur'atda jadallik bilan rivojlanishi barcha ta'lism muassasalarda ta'lism-tarbiya sifatini mazmunan yangi bosqichga ko'tarishni talab etmoqda. Bu esa yoshlar bilan olib borilayotgan ishlar ta'sirchanligini oshishiga xizmat qiladi. O'quvchilarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazish, muammolariga mas'uliyat bilan yondashish iqtidorli bolalar orqali komil insonni tarbiyalab, voyaga yetkazish bugungi kun talabiga aylanmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

O'qituvchi bu jarayonda shaxsiy rivojlanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratiladi. Interfaol metodlarni boshlang'ich sinf darsliklaridagi mashqlar bilan qo'llash orqali ham iqtidorlilik qobiliyatlarini rivojlantirish mumkin.

"Qalin" va "yupqa" savollar metodi.

Ta'lism jarayonida savollardan foydalanishda ularni ikki turga: oddiy va murakkab savollarga ajratish qabul qilingan. Bunda oddiy savollar "ha" yoki "yo'q" yoxud boshqa birorta so'zlar bilan javob berish mumkin bo'lgan savollardan iborat. Ularni boshqachasiga qisqa yoki ixcham obrazli qilib esa, ingichka savollar deb ham atash mumkin. Murakkab savollar ularga bir nechta so'zlar, iboralar, gaplar yoki tegishlicha bayon qilish, tushuntirish bilan javob berish lozim bo'lgan savollardan iborat. Ularni boshqachasiga to'liq yoki yoyiq obrazli qilib esa, qalin savollar deb atash ham mumkin. Shunga ko'ra, ushbu "qalin" va "ingichka" savollar metodining nomini boshqachasiga "to'liq" va "qisqa" yoki "yoyiq" va "ixcham" savollar metodi deb



ham atash mumkin. Bu metoddan o'quvchilarning o'zlashtirishini tezkor nazorat qilish hamda faolliklarini oshirish maqsadlarida mashg'ulotning turli bosqichlarida foydalanish mumkin. Buning uchun o'qituvchi darsning mavzusiga tegishli "qalin" va "ingichka" savollar jadvalini oldindan tuzib olishi kerak.

Namuna.

Mavzu: JONLI SAVATCHA (Tarbiya, 2-sinf).

“Yupqa” savollar	“Qalin” savollar
Kapalak nima uchun jo'jaga yordam bera olmadi?	"Jonli savatcha" ertagi haqida qanday fikrdasiz?
Chumchuq nima uchun jo'jaga yordam bera olmadi?	Jo'janing o'rnida bo'lganiningizda siz nima qilar edingiz?
Chuvalchangning maslahati nima uchun foya bermadi?	Siz jo'jaga qanday yordam bergen bo'lar edingiz?
Chumoli qanday qilib jo'jaga yordam berdi?	Ertakdag'i asosiy qahramon kim? Nima uchun?
Tumshug'ini tuxumga tinmay kim uraverdi?	Ahillikda, birlikda, haqrost, ko'pdir so'zlar mazmunini izohlang?

“Plyus va minus tomonlari” o'yini.

O'yinning maqsadi: o'quvchilarni bir-birlariga bo'lgan ijtimoiy harakatlarini aniqlash, shuningdek, ijobiy va salbiy fikrlashga o'rgatish.

O'yinning borishi: o'quvchilarning har biri uchta alohida qog'ozchalarga o'zining uchta ijobiy va uchta salbiy jihatlarini yozib qo'yadi. Keyin barcha qog'ozchalar aralashtirilib, sinf o'rtasida joylashtiriladi. Bolalar aylana bo'lib o'tirishib, navbatma-navbat bittagina qog'ozchani olib, ovoz chiqarmay o'qib, ularning fikriga ko'ra bu kim to'g'risida yozilgan bo'lsa, o'sha odamning oldiga (matnni teskari qilgan holda) qo'yadilar. Keyin hamma o'z oldiga qo'yilgan qog'ozlarni o'qishadi. Xohishga ko'ra sharhlar beriladi.

Namuna.

Mavzu: Yoz (Ona til va o'qish savodxonligi, 1-sinf).



Yoz mavzusida har bir o'quvchi 3ta ijobiy va 3ta salbiy fikrlarni aytishadi.

IJOBIY:

1. Yoz – yilning eng issiq fasli.
2. Bu faslda juda ko'p mevalar pishadi.
3. Yoz kelishi bilan ta'til boshlanib, bolalar oromgohlarga boradilar.

SALBIY:

1. Yozda hamma yer juda ham isib ketadi.
2. Ko'p bolalar cho'milaman deb cho'kib ketadi.
3. Kun uzun tun qisqa bo'lganligi uchun uyquga to'yish juda qiyin bo'ladi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Boshlang'ich ta'lif uzluksiz ta'limning asosiy qismi hisoblanadi. U bolaning sog'lom va rivojlangan shaxs bo'lib shakllanishini ta'minlab, o'qishga bo'lgan ishtiyoqini uyg'otib, tizimli o'qitishga tayyorlab boradi. Bola, avvalo, oilada tarbiyalanadi, unga ota-onasidan juda ko'p qobiliyatlar o'tadi. Ammo bolaning iste'dodini, qobiliyatini, iqtidorini rivojlantirishda hamma oilalarda ham yetarlicha e'tibor bo'lavermaydi. Ana shu kamchilikni to'ldirish, ya'ni o'quvchining iste'dodini aniqlash va rivojlantirishda muktabning, sinf rahbarining o'rni beqiyosdir. Sinf rahbari sinf o'quvchilarini o'rganish jarayonida individual suhbat, guruh bilan ishslash, birgalikdagi faoliyatni tashkil qilish, so'rovnomalar olish va ota-onalar bilan suhbatlar uyushtirish jarayonida bu faoliyatni yo'lga qo'yadi.

Iqtidorli o'quvchilarni uchta guruhini ajratish mumkin.

- aqliy qobiliyatlarning rivojlanish darajasi juda yuqori bo'lgan,
- o'rtacha darajadan aniq bo'lgan maktab o'quvchilari;
- maqsadga erishishda ijodiy yondashuv va qat'iyatlilik.

Iqtidorli bolalarda shakllanganadolat tuyg'usi va juda keng shaxsiy qadriyat tizimlari mavjud. Maktab o'quvchilari ma'lum bir bilim sohasidagi maxsus aqliy qobiliyatli belgilarga ega, ma'lum bir faoliyat turiga jalg qilishni afzal ko'rishadi, lekin atrofdagi his-tuyg'ularning nutqiy bo'limgan ko'rinishlariga haddan tashqari moyil bo'lishadi. Ba'zi sabablarga ko'ra o'qishda muvaffaqiyatga erishmagan, ammo aniq bilim faoliyati, o'ziga xos aqliy zehniga, ijodkorligi, samarali fikrashi va yetakchilik qobiliyatiga ega bo'ladi.



Iqtidorli o'quvchilar bilan ishslashda ularning qobiliyat va ehtiyojlarini inobatga olish muhim.

Shu sababli:

- O'quvchilarni bilim darajasiga qarab kichik guruhlarga ajratish;
- Murakkab topshiriqlar va ijodiy vazifalarni ishlab chiqish;
- Kreativlik, kritik fikrlash, kommunikativlik, kollabaratsiya kabi ko'nikmalarni rivojlantirish.

Ota-onalar va o'qituvchilar hamkorligi

Ota-onalar va pedagoglarning vazifasi yosh avlodni aqlan yetuk, jismonan sog'lom, axloqan pok, barkamol inson qilib tarbiyalashdan iboratdir. Iqtidorli o'quvchilar bilan samarali ishslash uchun ota-onalar va pedagoglarning hamkorligi muhim ahamiyatga ega. Ota-onalar va o'qituvchilarning muvaffaqiyatli hamkorligi o'quvchilar uchun ta'lim natijalarini yaxshilaydi. Ota-onalar ta'limning muhim ishtirokchilaridir. Ular farzandlarining ta'limga bo'lgan munosabatiga bevosita ta'sir qiladi va uyda bolaning o'qib o'rganishi uchun sharoit hozirlaydi. Shuni ta'kidlash joizki, bola tarbiyasi bilan jiddiy shug'ullangan ota-onalarning farzandlari ta'lim muassasasida o'z imkoniyatlarini mashg'ulot jarayonida qiynalmasdan ko'rsata oladi. Oila va ta'lim muassasalarining o'zaro hamkorlik hamda hamjihatlikda ish olib borishlari bolani nafaqat jismoniy va aqliy jihatdan rivojlantiradi, balki uning ma'naviy shakllanishiga ham ijobjiy ta'sir ko'rsatadi.

Buning uchun:

- Maxsus qo'shimcha ta'lim dasturlari ishlab chiqish;
- Ota-onalar uchun seminar va treninglar tashkil etish;
- O'quvchilarning qobiliyatlarini rivojlantirish uchun qo'shimcha resurslar bilan ta'minlash.

IQTIDORLI O'QUVCHI QANDAY ANIQLANADI?

"Iqtidorli o'quvchilarni aniqlash va o'qitish uslubiyoti, psixologik – pedagogik va tashkiliy sharoitlarni yaratiladi.

Bu usul orqali:

- O'quvchilarga ochiq va yopiq savollar taqdim etish orqali;



- Muammoli vaziyatlar yaratilib, ularni hal qilish uchun kreativ yechimlar izlashga undash orqali;
- Tadqiqot ishlarini olib borish orqali ilmiy tafakkurni rivojlantirishga yordam berish orqali;
- Interfaol metodlardan foydalanish orqali;
- Darsni faollashtiruvchi o'yinlardan foydalanish orqali;
- Bahs-munozaralar uyushtirish orqali;

XULOSA

Xulosa o'rnidagi shuni aytish kerakki, o'qituvchining iqtidorli bolalar bilan ishlashi juda murakkab va hech qachon tugallanmaydigan jarayon. Bu o'qituvchilar va o'qituvchilardan shaxsiy o'sishni, iqtidorli odamlarning psixologiyasi va ularni o'qitish sohasidagi yaxshi, doimiy ravishda yangilanib turadigan bilimlarni, shuningdek psixologlar, boshqa o'qituvchilar, ma'muriyat va albatta, iqtidorli ota-onalar bilan yaqin hamkorlikni talab qiladi. Boshlang'ich sinflarda iqtidorli o'quvchilar bilan ishslash uchun innovatsion usullardan foydalanish juda muhimdir. Iqtidorli o'quvchilarni qobiliyatini rivojlantirishda turli interfaol metodlardan foydalanish o'quvchilarni qobiliyatini tizimli ravishda rivojlanishiga olib keladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh. M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. –Toshkent: O'zbekiston NMIU, 2016.
2. Molokov D.S. Iqtidorli bolalar bilan chet elda ishslash uchun o'qituvchilarni tayyorlash/Elektron resurs. Kirish tartibi: [<http://www.eaicy-dar.ru/stati/Statya6.html>]
3. Davletshin M.G. va boshqalar. Qobiliyat va uning diagnostikasi. - T.:O'qituvchi, 1997.
4. Dostmuhamedova SH.A., Nishanova Z.T. va boshqalar. Yosh davrlari va pedagogik psixologiya - Toshkent:" Oqituvchi", 2013
5. Nishanova Z.T. Mustaqil ijodiy fikrlash. - Toshkent: Fan.- 2003